

## TIKUVCHILIK FANLARINI O'QITISHDA FAOL TA'LIM USULLARI

*Boqiyeva Maftunaxon Asliddin qizi*

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tuman*

*2-son kasb-hunar maktabi Tikuvchilik fanlari o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida tikuvchi kasbini o'rgatishda o'qitiladigan Tikuvchilik fanlarinin o'qitish jarayonida interfaol metodlardan biri grafikli organayzerlardan foydalanish metodikasi "Klaster", "Idrok xaritasi", tushunchalartahlili, Toifalash jadvali, T-sxemasi, Sinkveyn, So'z o'yini. misolida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** "Klaster", "Idrok xaritasi", tushunchalartahlili, Toifalash jadvali, T-sxemasi, Sinkveyn, So'z o'yini.

Zamonaviy kasb-hunar maktablarida o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiya, masofaviy ta'lim va texnikaning ilg'or yutuqlarini qo'llash fanning o'qitilishida ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shu o'rinda bir rivoyatni keltirishni joyiz deb deb topdik.

Kunlardan bir kun ko'l bo'yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib o'tirgan donishmandga duch kelibdi va unga murojaat qilib: "Men ochman, menga yordam ber! Donishmand quyidagicha javob beribdi: "Men senga baliq berishim mumkin, sen tez to'yasan va bir oz vaqt o'tgach yana och qolasan va mendan yana yordam so'raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin u ilinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojaat qilishingga to'g'ri keladi. Yaxshisi men senga qamoq yasashni o'rgataman, bu qiyin, lekin yordamim kerak bo'lmaydi. O'z yo'lingni o'zing tanla... Yuqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, yaxshi o'qituvchi o'quvchiga "Qarmoq" yasashni o'rgatadi. Ya'ni,

o'qituvchi o'quvchiga tayyor bilimni berish bilan kifoyalanmay, aksincha, mazkur bilim va tajribaning asos va mohiyatini anglatish zarur. Shundagina yosh avlod kelajakda mustaqil fikrga ega bo'lib, o'z uslubini yarata oladi. Manashu vazifalarni amalga oshirishda yangi interfaol va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini tadqiqotchilar tomonidan turli ta'lim muassasalarda o'tkazilayotgan ko'pgina pedagogik tajribalar tasdiqlamoqda. O'qitish jarayonida ta'limning interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilar faolligini oshirishiga, mustaqil fikrlash va qarorlar qabul qilishga, iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Lekin bu kabi metodlarni fandagi barcha mavzularga qo'llash o'rinli bo'lmaydi.

### **„Idrok xaritasi” (Konseptual xarita) metodi**

„Idrok xaritasi” (Konseptual xarita)metodi adabiyotda turli nomlar bilan uchraydi:” Idrok xaritasi”, ” Konseptual xaritasi ”, ” Kartografiya konsepsiyasi”, ”Interlekt-xarita”-fikrlarni taqdim qilishni va bog'lash usuli bo'lib, u o'quvchilarga tassavvur qilish va fikrlarni tizimlashtirish, o'rganilayotgan mavzudagi bosh g'oyalar yoki asosiy tushunchalarni, birlamchi tushunchalarni izohlashga yordam beruvchi ikkilamchi va uchlamchi g'oyalar yoki tushunchalarni ajratish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Taklif etilayotgan yangi usul yangi bilim va axborotlari konspektlashtirishning standart chizmasini ishlashga xizmat qiladi va darsning uzundan uzoq konspektini yozish yukidan xalos etadi.Xaritani tuzish o'quvchilarga:

- asosiy, ikkilamchi, uchlamchi (va h.k) shoxchalar chiziqlarni ishlatish hisobidan iyrarxik tartibda mavzuning asosiy g'oyalarini strukturalashga;
- ravshan va rangli obrazlar orqali g'oyalarni strukturalashga ;
- ular orasidagi bog'liqlikni namoyish etishga;
- rang, shrift razmeri, bo'rttirish va hokozolar bilan konsepsiyalarni ajratishga;
- maxsus belgilar yordamida g'oyalarni baholash va izoxlashga imkon beradi

### **Sinkveyn usuli.**

Sinkveyn- fransuz tilida ” 5 qator” ma’nosini bildiradi.

Sinikveyn- malumotlarini sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan sh’er bo’lib, unda o’rganilayotgan tushungan to’g’risidagi axborot yig’ilgan holda, o’quvchi so’zi bilan turli variantlarda turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Sinikveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidasi.

1-qator: Mavzu bir so’z bilan ifodalanadi(odatda ot talanadi.)

2-qator: Mavzu 2ta sifat bilan ifodlanadi.(2ta sifat yoziladi.)

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni 3ta so’z bilan ifodalanadi.(3ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi.)

4-qator:Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va 4ta so’zdan iborat fikr yoziladi.(4ta so’zdan iborat jumla yoziladi.)

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga yaqin bo’lgan bitta so’z yoziladi.(mavzuga sinonim so’z yoziladi.)

Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo’ladi:

- O’quvchilar tushunchalarini yig’indisini baxolash sifatida;
- Ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

Sinkveynga quyidagi misolni keltirish mumkin.

1. Mashina
  2. Chidamli ,qulay
  3. Ishlaydi, to’xtaydi, buziladi.
  4. Tikuvchiga kerak har doim
  5. Dastgoh
- 1.Mexanizm
  - 2.Katta,kichik
  - 3.Gazlamani suradi,ip o’raydi,gazlamani tikadi.

4.Mashina mehanizmlardan tashkil topgan.

5.Birikmalar.

T- jadvali.

Ushbu usul bir tushuncha hodisani ikki tomonini (ijobiy va salbiy) tahlil qilib chiqishiga imkon beruvchi usuldir. Bu sxema quyidagi ko'rinishiga ega( shaklidan kelib chiqib shunday nomlanadi );

Kimyoviy tolalar.

I j o b i y	S a l b i y
<p>Kam xarajat bilan boshlang'ich xom asho olish mumkin;</p> <p>Tolalar ishlab chiqarish kam mablag' talab qilinadi;</p> <p>Olinadigan tolalarni xossalarini oldindan rejalashtirish mumkin;</p> <p>Ko'rinishi chiroyi, bir qarshda o'ziga jalb qiladi;</p> <p>Bo'yash jarayoni oson, bo'yoq o'z xususiyatini uzoq vaqt saqlab turadi.</p>	<p>Inson salomatligiga salbiy ta'siri ko'p;</p> <p>Tibbiyot sohasida qo'llahilmaydi;</p> <p>Kapron tolasi issqqa chidamsiz,gigroskopikligi past;</p> <p>Mis-ammiak tolasini olish uchun ko'p mablag' talab qiladi'</p> <p>Sintetik tola kapron tolasi juda silliq,yashi ilashmaydi,ishqalanish kuchikam,o'ziga kam namlikni tortadi;</p> <p>Lavsan tolasining gigroskopik xususiyati yomon;</p> <p>Konsentrasiyalangan kislota va ishqorla ta'sirida yemiriladi.</p>

### So'z o'yini.

O'quvchilarning o' kasbiy fani bo'yicha so'z boyligining aniqlash maqsadida " So'z o'yini" o'tkazish mumkin. O'yin sarti: so'z iboralaridan uning oxirgi xarfidan boshqa so'z topish. O'yinning borishi.

Har ikkala guruh alohida qatnashadi. O'quvchilar doira shaklida joylashadilar. So'zning oxirgi xarfidan tezlik bilan so'z topishi kerak, uning topgan so'zining oxirgi harfidan sherigi so'z topishi kerak, aks holda tutilsa yoki o'ylab qolsa o'tirish kerak. Shu tariqa o'yin oxirida bir o'quvchi qoladi va rag'batlantiriladi.

Qaysi guruh ko'proq davom ettirsa shu guruh g'olib deb topladi.


Masalan : **chevar-razmer-rost-to'lalik-ko'ylak-kaketka-andoza-atlas-son aylana-abra-astar ....**

### Dumaloq stol metodi.

Topshiriq yozib qo'yilgan stolni davra bo'yla o'tkaziladi, har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'yadi va varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Hamma o'quvchilar o'z javob yozib qo'yishadi, keyin muhokama bo'ladi, noto'g'ri javoblar olinadi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchilar baho beriladi, bu metod faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda. Ketma- ket berilgan javoblar uzulmasligi kerak.

*"Tushunchalar tahlili"*

*2-Kichik guruh uchun topshiriq*

<b>Rasm</b>	<b>Izohi</b>
	<p>Aylana perespektiva</p>

Aylana perespektiva

## 2-Kichik guruh uchun topshiriq

<b>TUSHUNCHA</b>	<b>MAZMUNI</b>
Kompozitsiya	“Kompozisto” so’zidan olingan bo’linb to’qish ,tuzish, ma’lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish ma’nolarinin anglatadi.
Kompanovka	Chizilishi lozim bo’lgan naturani (jism)ni , manzara va va boshqalarni qog’ozga to’g’ri joylashtirish.

Natura

<b>TUSHUNCHA</b>	<b>MAZMUNI</b>
Natura	Kuzatilayotgan jism
Perespektiva	Kuzatuvchining ko’zi jismni qanday ko’rsa , naturaning tekisligidagi tasviri.

Xulosa o’rnida aytmqchimanki har qanday mashg’ulot turi asosiga o’quvchilarga ta’lim tarbiya berishni, ularning ma’naviy olamiga yangilik olib kirishni shu payitgacha hosil bo’lga bilim ko’nikma va malakalarni rivojlantishni, o’quvchilarni kasbiy yo’lanishi bo’yicha fanning yangi qirralari egallashini maqsad qilib olishi kerak. Har qanday maqsadga erishish uchun esa o’qituvchi izlanish va dars turini to’g’ri tanlab olishi zarur. Dars jaroyonida innavasion texnologiyalarni qo’llash o’quvchilarni mustaqil fikirlashga, o’zgaralar fikirini humatlashga, ijodiy izlanishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyudmila Vladimirovna Golish, Dilfuza Mirakbarovna Fayzullaeva. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv– uslubiy qo'llanma.- T.: Iqtisodiyot, 2010N.N. Azizxujaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T. 2003y.
2. Mamedov K. va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2003y. Saida fazliddinova, Maxsus rasm, Toshkent Cho'lpon nashriyoti, kasb-hunar kollejlari uchun darslik, 2017- yil
3. Q.Olimov, Tikuvchilik korxonalarini jihozlari va uskunalari, Toshkent -2008
4. N.S.Gaipova , M.Tursunxo`jayeva, Q.M.Abdullayeva, “Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari”, Toshkent- 2007
5. Q.T.Olimov, R.M.Rustamov, R.X.Nurboyev, “Tikuv mashinalari”, Toshkent - 2002

#### **Internet saytlar ro`yxati:**

<http://sewing.ru>  
<http://welltex.ru>  
<http://www.transmetall.ru>  
<http://www.velles.ru>  
<http://www.sewtech.ru>  
<http://www.ultratex.ru>  
<http://geran.ru>  
<http://www.juki.su>  
<http://knitism.ru>  
<http://www.osinka.ru>  
<http://shanggong.ru>  
<http://www.kansai-special.ru>  
<http://www.sew-tech.ru>  
<http://welltex.ua>  
<http://www.sew-tech.ru>